

## TA'LIM MUASSASALARIDA MUAMMOLI O'QUVCHILAR PSIXOLOGOGIYASI

*Andijon davlat chet tillari instituti,  
Ijtimoiy gumanitar fanlar,  
pedagogika va psixologiya kafedrasi o`qituvchisi  
Dumarova Gulfira Kozimbekovna*

### **Annotatsiya**

O'smirlik davri haqida tushuncha,o'smirlarning anatomic fiziologik xususiyatlari va o'smirlarning bilish jarayonlarining xususiyatlari tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar :** O'smirlik davri, fiziologik xususiyatlari, o'smirlarning bilish jarayonlari, bolalarning psixik rivojlanishi, ta'lif va tarbiya

**Annotation** - Understanding of adolescence, anatomic physiological characteristics of teenagers and characteristics of cognitive processes of young adults were analyzed

**Аннотация** - Проанализированы представления о подростковом возрасте, анатомо-физиологические особенности познавательных процессов молодых людей подростков и особенности

### **Kirish**

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Ta'lif to'g'risidagi" Qonun, ta'lif sohasini tartibga keliruvchi eng asosiy xujjatlardan biri xisoblandi. Zero, ta'lif tizimida umumiy o'rta ta'lif soha menejerlari va o'qituvchilar jamoasining pedagogik mahorati va pedagogik faoliyati samaradorligini tahlil qilish muammolari ta'lifning sifat mezonlarini belgilashga imkon beradi.

Zamonaviy yondashuv printsiplariga asoslanagan holda, o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan tayanch kompetentsiyalar nafaqat ularni pedagogik faoliyatini rivojlantirish pog'onasini takomillashtiradi, balki ularni pedagogik faoliyati bo'yicha o'sish dinamikasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Asosiy komponentlardan biri bu psixologik savodxonlikga ega bo'lishda, kommunikativ kompetentsiya orqali o'qituvchi muloqoti, axborot bilan ishlash kompetentsiyasi uning turli xil axborot vositalaridan foydalanish afzalliklarini o'rgatsa, Ijtimoiy faollik kompetentsiya orqali uning jamiyatda ijtimoiy faolligi, nufuzi va mavqeini ko'tarilishiga, umummadaniy kompetentsiya, milliy qadriyatlar va urf odatlarga bo'lgan munosabatlarini shakllantiradi. O'qituvchi xayotida o'quvchilar psixologiyasi eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Shunday ekan, pedagogik faoliyatda muammoli o'quvchilar bu asosan o'smirlik davriga to'g'ri keladi.

O'smirlik - bu bola shaxsi rivojlanishining alohida bosqichidir. O'smirlik davrida butun aqliy hayotdagi sifat o'zgarishi asosida bolaning dunyoga va o'ziga bo'lgan avvalgi barcha munosabatlari buziladi va tiklanadi. O'smirlik davrining asosiy muhim xususiyati shundaki, u poydevor qo'yadi va shaxsning axloqiy va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishning umumiy yo'nalishini belgilaydi. Shu sababli, ushbu yoshda yuz beradigan ko'plab sifatli o'zgarishlarni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish juda muhimdir. Biz o'smirlik davri psixologiyasi haqida toxtalib otamiz. O'smirlik davri insonni bolalikdan — yoshlikka otuvchi va oz navbatida boshqa davrlardan ozining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5—8-sinflarda oqish paytlariga togri keladi va 11—12 yoshdan 14—15 yoshgacha bolgan davr oraligida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1—2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O'smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «otish davri», «ogir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «ogirligi», «keskinligi», «murakkabligi» bilan asoslanadi.

Psixik jarayonlar tashqi olamni ongda aks ettirish, unga javob reaktsiyalarini berish bilan bogliq jarayonlarning barchasini oz ichiga oladi. Psixik jarayonlar ongning ozida paydo bolib, ongning ozida tugallanadi degan fikrni Sechenov mutlako noto'g'ri fikr deb hisoblagan edi. Psixik xodisa xali yuzaga kelmagan natijadan ham darak beradi. Psixik jarayon, ma'lumki oziga emas balki, miyaning mohiyati, uning tegishli bolmalari funktsiyasi sifatida olam haqidagi axborotlarning qayoqqa ketishi, qaerda saqlanishi va qayta ishlanishini korsatuvchi javob reaksiyasining boshqaruvchisidir.

O'smirlardagi asosiy psixologik o'zgarish – o'smir o'zini asta-sekin katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bolib qoladi. Bu hissiyor kattalik hissi deb ataladi va o'smirlikdagi asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o'smirda o'ziga, atrof muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyani yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta orientasiya qila boshladi, O'smir o'z huquqlari doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni bir necha shartli guruhlarga ajratish mumkin:

- orsiz, subutsiz o'smirlar;
- mustaqil fikrga ega bo'limganlar;
- shaxsiy talab va ehtiyojlarini qondirish uchun qonunbuzarlik yo'liga kirgan o'smirlar;

- injiq tabiatli o'smirlar;

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni yuzaga keltiruvchi sabablar quyidagilar:

- shaxsning biologik kamchiliklari;
- psixik rivojlanishdagi kamchiliklar;
- shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar;

- bilish faoliyatidagi kamchiliklar; maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;
- mактабдан ташқари мухитдаги камчiliklar;

O'smirlarning tarbiyasi, qiyinlik belgilari va ular bilan ishlash tadbirlari:

Inson umrining o'smirlik bosqichida, bizningcha, asosan ikkita xatarli jihat paydo bo'ladi. Uning birinchisi – kattalarga taqlid qilish, ikkinchisi – o'smirning oilada va mактабда nazoratdan chetda qolish. Shu ikki jihat katta yoshdagi odamlar e'tiboridan tashqari, o'z oqimida maqsadga muvofiq, tarzdan kichadi bo'ls, oqibar tarbiyasi qiyin deb ataluvchi o'smirlar paydo bo'lishiga olib keladi. Birinchi jihatni tahlil qilib ko'raylik, chunonchi o'smirlik bosqichidagi o'g'il va qizlarda ilk "kattalik" hissi yuzaga keladi. Bu yoshdagi o'smir munosabat uslubini o'zgartiradi, axloq mazmuni ham keskin o'zgaradi. Kattalarning tashqi qiyofasi, yurish-turish, ko'zga tashlanadigan ayrim tomonlari o'smir shu davrga tezroq yetish istagini uyg'otadi. Jumladan modaga qiziqish, o'ziga oro berish, o'zgacha "madaniy" hordiq chiqarish, mulozamat qilishga intilish kabilar. Ular ko'pincha talablarga, katta yoshdagi kishilarga, televizor va kinolarda ko'rganlariga taqlid qiladi. O'z tasavvurida nimani ommabop deb hisoblasa, xuddi shu narsani namuna tarzida qabul qiladi. O'smirda o'z-o'zini va o'zgalarni baholash mezoni ana shu tariqa yuzaga keladi. Shuning uchun unda yangi his-tuyg'ular, orzu-umidlar, sevgi haqidagi kitob o'qish holatlari ko'zga tashlanadi. Psixologiya fanida inson xulq-atvoridagi o'zgarish, goho chetga og'ish hodisasi ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi haqida umumiyl qonuniyat mavjud. Jahon psixologlari olib brogan tadqiqodlar tarbiyasi qiyin o'smirlarning paydo bo'lishga ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik omillar ham sabab bo'lishini ko'rsatmoqda. O'smirlar harakatlarini izchil va uzlusiz o'rganish, ulardagи chetga og'ish ko'rinishlari turlicha bo'lishini takidlamoqda. Tarbiyasi qiyin o'smir, axloqi butunlay ishdan chiqqan, harakat boshqarish imkoniyatiga ega bo'lмаган, jinoyatchi emas. Shuning uchun ularning xulq motivlarini tadqiqot qilish orqali qayta tarbiyalash, shasda hukm surib kelayotgan ayrim illatlarni bartaraf qilish imkoniyati mavjuddir. Bu jarayon o'ta murakkab, ota-onadan, o'qituvchilardan, jamoat tashkilotlaridan, mahalla faollaridan katta kuch, sabr-toqat, uzoq mehnat va chuqur izlanishlar talab qiladi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlar tipologiyasi. Tarbiyasi qiyin o'smirlar xatti-harakatini izchil va muntazam o'rganish, ular orasida axloq qoidalaridan chetga chiqish xollarining sabablari turlicha ekanini yaqqol isbotlamoqda. Odатда tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy va ahloqiy qonunbuzarliklar guruhiga ajratib o'rganiladi. Maxsus tadqiqotlar qonunbuzar o'smirlardagi salbiy xatti-harakatlarning vujudga kelishi sabablariga qarab, tarbiyasi qiyin o'smirlarning taxminiy tipologiyasini tuzish imkoniyatii beradi. Birinchi guruhga balog'atga yetmagan. Andishasiz, qaysar o'smirlar kiradi. Bunday o'smirlar shaxsiy qarashi, o'zgalarga baho berishi ahloq ehtiyojlarini mакtab, oil ava jamoatchilik fikrlariga qarshi qo'yadilar. Mustaqil ijodiy

fikr yuritish, o'z-o'zini nazorat qilish, oz o'zini tanqid qilish singari shaxs sifatlarini shakllantirishga etibor berish zarur. Yo'l qo'ygan kamchiliklarini dalillar asosida ko'rsatib berish, qayta tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni guruhgaga ajratish maqsadida, individual suhbatlashish ularning savol varaqasini to'ldirishga o'rgatish. Ularni uzlusiz ravishda kuzatib boorish. Yozgan bayon yoki insholarini tahlil qilish, shaxsiy hujjatlarini izchil o'rganish, sinf rahbar yoki tarbiyachining kundalik daftarlarini yuritish, muammoli yoki "konflekt" li vaziyatni vujudga keltirish asosida tajriba o'tkazish, individual shaxsda yoki jamoada qanday o'zgarishlar ro'y berishini muttasil kuzatib boorish, ularni qayta tarbiyalash uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Muloqotni kutish – murakkab o'ziga xos holat bo'lib, bunda o'smir shartli va shartsiz ravishda qiziqarli va muhim, takrorlanmas uchrashuv va muloqotni kutadi. Shu sababdan ular ota-onalari, arofidagi kattalar va umuman boshqalarga diqqat va qiziqish bilan qaraydilar. Muloqot ko'payishi natijasida do'stlik kelib chiqadi va bu do'stlik o'smir uchun o'zini mustaqil va katta odam sifatida hisoblay olishga turki bo'la oladi. Do'stlikning asosiy sharti esa – o'zaro bir-birini tushunish hisoblanadi.

**Xarakter aksentuasiyasi - K.Leongard** tomonidan kiritilgan tushuncha bo'lib, xarakter ba'zi sifatlarning yorqin ifodalanganligining namunasidir. Xarakter aksentuasiyasini bilish o'smirlarga individual yondashish, kasbga yo'naltirish kabilarda zarurdir. O'z-o'zini baholash – shaxsning o'zini boshqalar bilan taqqoslash va refleksiya natijasida o'z-o'zini baholash murakkab va o'zgaruvchan bo'lib, shaxs strukturasida katta o'rinn tutadi.

**Anatomo** – fiziologik xususiyatlari. Butun endokrin sistemasining, xususan gipofizning aktivlashishi tufayli o'smir organizmida sifat jihatdan o'zgarishlar yuz beradi. Bu holat qizlarda 11-13, o'g'llarda 13-15 yoshda bo'lib, ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo'ladi, o'smirlarning tashqi ko'rinishi o'zgaradi. Muskullar massasi va muskul kuchi o'sadi, bu holat jinsiy yetilish davrining oxiriga borib tezlashadi. Ichki organlar, xususan yurak o'sadi. Ba'zan yurak qon-tomir sistemasida patalogik o'zgarishlar yuz beradi. O'tish davrining inqirozi haqida nazariy qarashlar ;

**S.Xall va Z.Fryed** bu inqiroz biologik shartlanganligi tufayli muqarrardir deb hisoblasalar, Amerikalik antropologlar **M.Mid** va **R.Benedikt** o'smirlik inqirozi ijtimoiy munosabatlarning natijasidir deb isbotlaydilar. R.Benedikt bolalikdan kattalikka o'tishning 2 xil usulini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, buyuk mutafakkir **Abu Ali Ibn Sino** "Bolalar tarbiyasi" asarida o'tganidek: "Har qanday sharoitda ham bolani qattiq urishish, ayniqla jazolash, urish mumkin emas" degan goyani ilgari surgan. Ota-onalik va o'qituvchi buni bilishi shart va muximdir, zero, o'smirlar ruhiyatidagi buzilishlar, asab tizimidagi "uzilishlar"- o'smirning yovvoyilashib, yodsirab qolishiga, aksincha jahldor bo'lib, tez asabiylashib qolishiga olib kelishi mumkin. Natijada bola uyidan ketib

qolishiga, ko'chalarda daydib yurishi, chekishga odatlanishi, giyohvand moddalar, alkogol ichimliklariga ruju qo'yushi, suisidgacha borishi, yani o'z hayotiga qasd qilishi ham mumkin. Valeologik harakatlar nafaqat o'smirlarga, balki ularning ota-onalariga, atrofidagi odamlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o'smir yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, Ta'lim berishi uchun eng qulay sharoit — bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishidir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan lozim bo'lganda ularning o'rnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Kattalar o'smirlar bilan do'stona munosabati orqali uning hayotda mustaqil pozitsiyasini tanlashga va ega bo'lishiga erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. T. O'zbekiston. 1998. B. 90 95.
2. G'oziev E. Ontogenet psixologiyasi. T. Sharq. 2008 . B. 33-35.
3. Shoumarov G. Oila psixologiyasi . T. Sharq. 2001. B. 24-25. Nishonova Z. O'smirlilik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. O'quv qo'llanma. T., Sharq. 2003. B. 25-2 E.G' Goziyev – “Umumiy psixologiya”. – Toshkent: 2002 yil.
4. E.G'.G'oziyev – “Ijtimoiy psixologiya” – Toshkent: 2016 yil.
5. <http://www.Psixologiya.uz> (<http://www.psixologiya.uz/>)